
Rishtonda II Ustozlar milliy forumi o'tkazildi

Yangi - 2023-2024 o'quv yili boshlanishi oldidan Rishton tumanida II Ustozlar milliy forumi o'tkazildi. "Vodiy" tantanalar saroyida tashkillangan mazkur tadbirda tuman hokimi Bahodir Xoliqov ishtirok etdi.

Ta'lim muassasalari direktorlari, faol o'qituvchilar hamda soha faxriylari taklif etilgan forumda ta'kidlanganidek, davr shu qadar shitob bilan o'tyaptiki, islohotlarning barcha bosqichi ilm-fan, texnika asosida jadallik bilan rivojlanishni taqozo qilmoqda. Shuning uchun ham davlatimiz rahbari har bir chiqishlarida ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini zamonaviylashtirish, xalqaro talablar darajasiga ko'tarish vazifasini qo'ymoqda.

Binobarin, o'tgan o'quv yilida o'nlab pedagogning ilg'or tajribasi viloyat va tuman miqyosida ommalashtirildi. Tabiiyki, bu jarayon maktablar hayotiga o'ziga xos jo'shqinlik berdi. Ko'plab darslar ochiq tarzda o'tkazilyapti. O'qituvchilar dars samaradorligini oshirishda bir-biriga ko'maklashyapti.

Forumda, o'tgan o'quv mavsumi sarhisob qilinar ekan, yutuq va muvaffaqiyatlar e'tirof etilishi bilan birga, yo'l qo'yilgan kamchiliklarga ham to'xtalib o'tildi. Shuningdek, yangi o'quv yili oldidan amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalar belgilab olindi.

2023-08-25 18:09:54